


## YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-sentabrida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rirlarda – YAHM) hajmi jorii narxlarda 18 122,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 7,4 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2020- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 114,0 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAHMning shakllanishida Qoraqalpog'iston Respublikasining qo'shgan hissasi 3,5 % ga yetdi.



**2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi  
va o'sish sur'atlari**

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
I. YAHM		14 798,4	18 122,2	107,4


*shu jumladan:*

	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	13 878,8	16 684,6	107,3
	Mahsulotlarga sof soliqlar	919,6	1437,6	108,2
	<b>Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>13 878,8</b>	<b>16 684,6</b>	<b>107,3</b>
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3 583,0	4 330,1	105,8
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>5 046,6</b>	<b>6 033,4</b>	<b>106,8</b>
	sanoat	3 770,2	4 525,0	105,8

## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI


		Mld. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	qurilish	1 276,4	1 508,4	109,8
<b>Xizmatlar</b>		<b>5 249,2</b>	<b>6 321,1</b>	<b>108,9</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	728,1	872,2	107,4
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	836,0	1 041,2	117,4
	boshqa xizmat tarmoqlari	3 685,1	4 407,7	107,2

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 9 381,9 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,0 % ga yuqoridir.




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiyligi YAHMning 92,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 7,9 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlari bo'yicha tarkibidagi ulushi 26,0 % ni, sanoat tarmogi 27,1 % ni, qurilish 9,0 % ni va xizmatlar sohasi 37,9 % ni tashkil qildi.




		<b>2020- yil</b>	<b>2021- yil</b>
<b>I. YAHM, jami</b>		<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	93,8	92,1
	Mahsulotlarga sof soliqlar	6,2	7,9
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>		<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	25,8	26,0
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	36,4	36,1
	sanoat	27,2	27,1
	qurilish	9,2	9,0
<b>Xizmatlar</b>		<b>37,8</b>	<b>37,9</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,2	5,2
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,0	6,2
	boshqa xizmat tarmoqlari	26,6	26,5




2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2020- yil





2021- yil




YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 105,8 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 26,0 %), sanoatda – 105,8 % (27,1 %), qurilishda – 109,8 % (9,0 %), xizmatlar sohasida – 108,9 % ni (37,9 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 107,4 % (5,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 117,4 % (6,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 107,2 % dan (26,5 %) iborat bo'ldi.






**2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida  
YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,4 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrida – 0,4 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,5 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrida – 0,7 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,8 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrida – 0,1 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 3,2 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrida salbiy – 0,4 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YaHM 0,5 f.p. ga ko'paydi.



2021- yilning yanvar-sentabrida YAHM deflyator indeksi 2020- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 114,0 foizni tashkil etdi. YAHM deflyator indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 114,3 % va sanoatda – 113,4 % qayd etildi.



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 56,1 %ni tashkil qildi (2020- yilning yanvar-sentabrida – 55,9 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan izohlanadi.